O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI JIZZAX VILOYATI SHAROF RASHIDOV TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

2022 - yil 4 - aprel 112-3-46-Q/22 Sharof Rashidov tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi "Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yana-da oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-57-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi «Aholi bandligi to‘g‘risida»gi Qonunining 39-moddasi, Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida»gi Nizom hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yana-da oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-57-sonli qaroriga asosan, Sharof Rashidov tumanidagi korxona va tashkilotlarda 2022-yil mobaynida ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan hamda nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun qo‘shimcha ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yana-da oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-57-sonli qaroriga asosan, tuman hududida joylashgan korxona tashkilot va muassasalarda 2022-yil uchun qo‘shimcha kvota ish o‘rinlarining belgilanishi kerak bo‘lgan eng kam sonini va ularga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish maxsus komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, xodimlar soni 20 nafardan ko‘pni tashkil etadigan korxona, tashkilot va muassasalarda xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha sonining 10 foiz miqdorigacha, (shu jumladan, nogironlar uchun 3 foiz) jami 10 ta qo‘shimcha kvota ish o‘rinlari belgilash 2-ilovaga

muvofiq tasdiqlansin.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan «Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash to‘g‘risida»gi Nizomga asosan Nizomning 3-bandiga muvofiq, korxona va tashkilotlarda joriy yilda ishga joylashtirib bo‘lingan shaxslar ish o‘rinlari 2022-yil uchun band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlari sonini belgilashda hisobga olinsin.

Shu jumladan: Nogironlar uchun 3 foiz (10 kishi);

3. Shaxslarning ko‘rsatib o‘tilgan toifalari uchun ish o‘rinlari sanitariya-gigiyena me’yorlariga va xodim o‘z mehnat majburiyatlarini to‘siqsiz bajarishini ta’minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga muvofiq bo‘lishi kerak.

4. Ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yiladigan har bir korxona, tashkilot va muassasalarda kasblar va lavozimlar ro‘yxati keltirib o‘tilsin.

5. Korxona, tashkilot va muassasa rahbarlari yil boshlanishidan oldin 10 kundan kechikmay muhtojlarni ishga joylashtirish uchun muhtojlar uchun zaxiraga qo‘yiladigan ish o‘rinlari umumiy sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi miqdorida ish o‘rinlari zaxiraga qo‘yilishi va tayyorligini ta’minlashi, shuningdek, bu haqda yil boshlanganga qadar tuman Bandlikka ko‘maklashish markazini xabardor qilishi shart.

6. Muhtojlar uchun ish o‘rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo‘yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan kalendar yilning birinchi choragi mobaynida ta’minlanadi, bu haqda tuman Bandlikka ko‘maklashish markazi birinchi chorak tamom bo‘lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilinsin.

Har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Bandlikka ko‘maklashish markaziga Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo‘yicha muhtojlarni ishga joylashtirish to‘g‘risida axborot taqdim etilsin.

7. Ushbu qarorni bajarmagan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ma’muriy jarima solinadi.

8. Belgilab qo‘yilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani to‘laganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

9. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etilgan taqdirda ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda eng kam oylik ish haqining 2 baravari miqdorida haq to‘lash; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5- martdagi PQ–4227-son 1 bob, 2-bandi. Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanishi belgilansin.

10. Tuman bandlikka ko‘maklashish markazi tomonidan bir hafta muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazilsin va mazkur qarorning bajarilishi ustidan nazoratni ta’minlasin.

11. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

12. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari M.Ergashev zimmasiga yuklatilsin.

Туман хокими **М.Холбутаев**

Sharof Rashidov tuman hokimining
2022 yil 4 apreldagi
112-3-46-Q/22-son qaroriga
1-ilova

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 21-dekabrdagi «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yana-da oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-57-sonli qarori ijrosi bo‘yicha qo‘yiladigan talablarni o‘rganish maxsus komissiyasi

Tarkibi:

№	Komissiya a’zosining F.I.Sh	Lavozimi
1	M.Ergashev	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari, komissiya raisi
2	K.Abdullaev	Tuman aholi bandligiga ko'maklashish markazi direktori komissiya raisi o'rinbosari
3	B.Turdiqulov	Tuman ABKM band bo‘lmagan aholini hisobga olish va ishga joylashtirish sho‘basi mutaxassisi, **komissiya kotibi.**
4	Sh.G'ozibekova	Tuman hokimining o‘rinbosari - oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i, komissiya a’zosi.
5	A.Xikmatov	Tuman statistika bo‘limi boshlig‘i komissiya a’zosi.
6	B.Donaboev	Tuman tibbiyot birlashmasi boshlig‘i, komissiya a’zosi
7	J.Kenjaev	Tuman Byudjetdan tashqari pensiya jamg‘armasi boshlig‘i, komissiya a’zosi

Sharof Rashidov tuman hokimining
2022 yil 4 apreldagi
112-3-46-Q/22-son qaroriga
2-ilova

Sh.Rashidov tumanida aholini ijtimoiy himoyaga muxtoj, ish topishda qiynaladigan va mehnat bozorida teng sharoitlarda raqobatlashishga qodir bo‘lmagan qatlami uchun 2022-yilda ish joylarining eng kam miqdorlarini yaratadigan korxona, tashkilot va muassasalar RO‘YXATI

T.P	Korxona, tashkilot va muassasalar nomi	Manzili	01.08.2021-yil xolatiga ishlovchi xodimlar soni	Nizomga asosan belgilangan me’yor asosida Belgilangan kvota ish o‘rinlari soni	Shu jumladan o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun	umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun	safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun	nogironlar shaxslar uchun	Aholi bandligiga ko‘maklashish markazida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan shaxslar uchun	jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun	kichik yoshli bolasi bor bo‘lgan ishlamayotgan ayollar uchun	ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmagan kasalliklarga chalingan shaxslar uchun	odam savdosi qurbonlari uchun
A	**1**	**2**	**3**	**6**	**7**	**8**	**9**	**10**	**11**	**12**	**13**	**14**	**15**
1	Sh.Rashidov tumanTibbiyot birlashmasi	Uchtepa	1879	2				2					
2	Jizzax viloyat Ruxiy kasalliklar dispanseri	Qangli	156	1				1					
3	Sh.Rashidov tuman“Jizzax sanatoriyasi”	Ziyokor	92	1				1					
4	h.Rashidov tuman№ 36-son umumiy o‘rta ta’lim maktabi	Toshkentlik	98	1				1					
5	Sh.Rashidov tuman№ 26-son DMTM	Nonisangil	34	1				1					
6	Viloyat Nasos stansiyalari, energetika va aloka boshqarmasi	Oqtoshota	429	1				1					
7	Sh.Rashidov tumanYo‘l xo‘jaligi pudrat ta’mirlash-foydalanish davlat karxonasi	Xalqabod	158	1				1					
8	Sh.Rashidov tumanObodonlashtirish boshqarmasi	Qahramon	151	1				1					
9	Jizzax Melerotiv ekspeditsiyasi	Oqtoshota	382	1				1					
x	**Jami:**	**x**	**3379**	**10**	**0**	**0**	**0**	**10**	**0**	**0**	**0**	**0**	**0**